

UO'K(UDC, УДК): 81'373.46

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FUTBOL TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI³³

Otaboyev Axmadullo Jumaqo'zi o'g'li

Andijon davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi

Andijon, O'zbekiston

E-mail: axmadullootaboyev27@gmail.com

ORCID ID:0009-0009-7468-1922

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
<p>Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida futbol terminlarining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi futbol diskursida qo'llanadigan terminlarni semantik mazmuni, nomlash vazifasi, qo'llanish sohasi va funksional xususiyatlariga ko'ra guruhlash hamda ularning ikki tildagi ifodalanish usullarini aniqlashdan iborat. Maqolada terminologik tasnifga oid nazariy qarashlar umumlashtirilib, futbol terminlari nominativ, protsessual, reglamentativ, natija-statistik va strategik mezonlar asosida izohlanadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, leksik-semantik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi futbol terminlari ko'pincha ixcham, xalqaro va standartlashgan shaklda qo'llansa, o'zbek tilida ular o'zlashma, kalkalash, izohli birikma va parallel variantlar orqali ifodalanadi. Maqola futbol terminologiyasining ichki semantik maydonini belgilash, inglizcha terminlarning o'zbek tilidagi muqobillarini tizimlashtirish va sport diskursida termin qo'llash me'yorlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.</p>	<p>Futbol terminologiyasi, termin, leksik-semantik tahlil, nominativ mezon, protsessual mezon, sport diskursi, o'zlashma termin, kalkalash, ingliz tili, o'zbek tili.</p> <p>Received: January 30, 2026 Accepted: February 18, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

³³ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Otaboyev A. Ingliz va o'zbek tillarida futbol terminlarining leksik-semantik xususiyatlari.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 404-417.

**LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF FOOTBALL TERMS IN ENGLISH
AND UZBEK****Otaboyev Akhmadullo Jumakhuzi Ugli**Researcher of Andijan State Institute
of Foreign Languages
Andijan, UzbekistanE-mail: axmadullootaboyev27@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-7468-1922

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article examines the lexical-semantic features of football terms in English and Uzbek from a comparative perspective. The main aim of the study is to classify terms used in football discourse according to their semantic content, nominative function, sphere of use and functional characteristics, as well as to identify the ways in which they are expressed in the two languages. The article summarizes major theoretical approaches to terminological classification and analyzes football terms on the basis of nominative, procedural, regulatory, result-statistical and strategic criteria. The research employs comparative, descriptive, lexical-semantic and componential methods of analysis. The findings demonstrate that English football terms are often concise, internationally recognizable and relatively standardized, whereas their Uzbek equivalents are formed through borrowing, calquing, descriptive phrases and parallel variants. The study contributes to defining the internal semantic field of football terminology, systematizing Uzbek equivalents of English football terms and clarifying norms of term usage in sports discourse. The results may be useful for terminology studies, translation practice, lexicography and the teaching of specialized vocabulary in comparative linguistics.</p>	<p>Football terminology, term, lexical-semantic analysis, nominative criterion, procedural criterion, sports discourse, borrowed term, calquing, English language, Uzbek language.</p>

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФУТБОЛЬНЫХ
ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****Отабоев Ахмадулло Жумакузи угли**

Исследователь Андижанского государственного

института иностранных языков

Андижан, Узбекистан

E-mail: axmadullootaboyev27@gmail.com

ORCIDID: 0009-0009-7468-1922

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье рассматриваются лексико-семантические особенности футбольных терминов в английском и узбекском языках в сравнительном аспекте. Основная цель исследования состоит в классификации терминов, функционирующих в футбольном дискурсе, по их семантическому содержанию, номинативной функции, сфере употребления и функциональным признакам, а также в выявлении способов их выражения в двух языках. В работе обобщаются теоретические подходы к терминологической классификации и предлагается анализ футбольных терминов на основе номинативного, процессуального, регламентативного, результативно-статистического и стратегического критериев. В ходе исследования применялись сравнительно-сопоставительный, описательный, лексико-семантический и компонентный методы анализа. Полученные результаты показывают, что английские футбольные термины чаще характеризуются краткостью, международной узнаваемостью и относительной стандартизованностью, тогда как в узбекском языке они передаются посредством заимствования, калькирования, описательных словосочетаний и параллельных вариантов. Материалы статьи способствуют систематизации семантического поля футбольной терминологии, уточнению узбекских эквивалентов английских терминов и определению норм терминологического употребления в спортивном дискурсе.</p>	<p>Футбольная терминология, термин, лексико-семантический анализ, номинативный критерий, процессуальный критерий, спортивный дискурс, заимствованный термин, калькирование, английский язык, узбекский язык.</p>

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda terminologik birliklarni semantik mazmuni, qoʻllanilish sohasi va funksional xususiyatlariga koʻra mavzuiy guruhlar asosida oʻrganish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv terminlarni alohida leksik birlik sifatida emas, balki muayyan soha doirasida oʻzaro bogʻlangan tizimli munosabatlar majmui sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan terminlarni leksik-semantik guruhlar asosida tadqiq etish soha terminologiyasining ichki tuzilishi, semantik maydoni va nutqda qoʻllanilish xususiyatlarini yoritishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ingliz va oʻzbek tilshunosligida turli soha terminologiyalarini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy ishlarda terminlarni mavzuiy guruhlar asosida tasniflashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, sport, xususan, futbol terminologiyasi globallashtiruvchi, xalqaro musobaqalar, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya taʼsirida jadal rivojlanayotgan terminologik qatlamlardan biridir. Futbol terminlari ingliz tilida xalqaro kommunikatsiyaning tayanch birliklari sifatida shakllangan boʻlsa, oʻzbek tilida ular oʻzlashma, tarjima, kalkalash va izohli ifoda vositalari orqali faol qoʻllanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi ingliz va oʻzbek tillarida futbol terminlarini leksik-semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy hamda farqli xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi futbol terminlarini semantik mezonlar asosida tasniflash va ularning ikki tildagi ifodalanish usullarini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqolada terminologik tasnifga oid nazariy qarashlar tahlil qilinadi, futbol terminlari asosiy leksik-semantik guruhlariga ajratiladi va inglizcha terminlarning oʻzbek tilidagi muqobillari izohlanadi.

METODLAR (TADDIQOT METODLARI)

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, leksik-semantik, komponent tahlil va tasniflash metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod ingliz va oʻzbek tillaridagi futbol terminlarining semantik mosligi hamda farqli ifodalanish usullarini aniqlashga xizmat qildi. Tavsifiy metod terminlarning qoʻllanilish sohasi, nominativ vazifasi va funksional xususiyatlarini izohlashda qoʻllandi. Leksik-semantik tahlil esa futbol terminlarini mazmuniy guruhlariga ajratish va ularning semantik maydonini belgilash imkonini berdi.

J. S. Sager terminlarni tasniflashda bir necha mezonni ajratib koʻrsatadi. *1)kognitiv-konseptual guruhlash*, bunda termin oʻzi nomlab kelayotgan predmet, hodisa, jarayon yoki tushuncha bilan bogʻliq holda oʻrganiladi;

2)lingvistik-denominativ guruhlashda terminlar qanday nomlanganiga koʻra tasniflanadi: **a)sodda terminlar;****b)qoʻshma terminlar;****d)birikmali terminlar;****e)qisqartmalar;****f)oʻzlashma terminlar;****g) neologizmlar** va **h)nomenklatura terminlar;**

3) kommunikativ-funksional guruhlash, tilshunos terminlarni kommunikatsion vosita sifatida talqin etadi va quyidagi turlarga ajratadi: **a) aniq**

nomlovchi terminlar, b) izohlovchi yoki ta'riflovchi terminlar, d) standartlashtirilgan terminlar, e) tarjima terminlar, f) mutaxassisliklararo va ommaviy kommunikatsiyada qo'llaniladigan terminlar.

4) *konseptlararo munosabatlar asosida guruhlash*, bunda J.S.Segar terminlarni to'g'ri standartlashtirish uchun, avvalo, ularni tegishli konseptlar tizimini tartibga solish kerakligini ta'kidlaydi hamda quyidagi 3 guruhga ajratadi: *a) ierarxik munosabatdagi terminlar, b) qism-butun munosabatidagi terminlar, d) assotsiativ munosabatdagi terminlar* (Sager, 1990, 2-5).

M.K.Kabre o'zining "Terminology: Theory, Methods and Applications" kitobida terminlarni kognitiv, lingvistik va kommunikativ jihatlarini o'rganadi va ularni quyidagi semantik guruhlariga bo'ladi: *a) konseptual terminlar, b) denominatsion terminlar, d) termin-konsept munosabati, e) sinonimik terminlar, f) omonimik terminlar va g) sohaviy terminlar* (Cabr , 1999, 34-45). S.E.Rayt yondashuvda esa terminologik birliklar muayyan sohada mavjud tushunchalar o'rtasidagi semantik munosabatlarga ko'ra tahlil qilinadi. Bunday munosabatlarga tur-jins, butun-qism, ketma-ketlik, assotsiativ bog'lanish va ko'p o'lchovlilik kiradi (Wright & Budin, 1997, 89-97).

Tur-jins yoki umumiy-xususiy munosabatlarga asoslangan terminlarda umumiy tushuncha o'zining xususiy turlariga ajratiladi. Masalan, iqtisodiyot terminlari umumiy semantik maydonni tashkil etsa, uning tarkibida moliya, bank, soliq, investitsiya, bozor, kredit, eksport-import kabi xususiy guruhlar ajralib chiqadi. Butun-qism munosabatiga asoslangan terminlarda esa bir obyekt va uning tarkibiy qismlari alohida guruhlariga bo'linadi; masalan, computer umumiy obyekt bo'lsa, klaviatura, protsessor, xotira, sichqoncha va disk uning tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

Ketma-ketlikka asoslangan terminologik birliklarda terminlar bir jarayon yoki hodisaning bosqichlari sifatida joylashtiriladi. Masalan, tibbiyotda kasallikni davolash jarayoni diagnostika, tashxis, davolash, rehabilitatsiya va profilaktika bosqichlaridan iborat bo'lishi mumkin. Assotsiativ munosabatlarga asoslangan terminlar esa mazmuniy yaqinlik, sabab-oqibat, vosita-harakat, harakat-natija yoki joylashuv aloqasiga ko'ra bog'lanadi. Ko'p o'lchovli terminlar bir vaqtning o'zida bir necha semantik guruhga mansub bo'lishi mumkin; masalan, dvigatel avtomobil qismi, energiya ishlab chiqaruvchi vosita va texnik qurilma sifatida turli semantik maydonlarga kiradi.

R. Timmerman genetika, biotexnologiya, klonlash, gen va DNK terminlarini tahlil qilib, ularni 5 kategoriyaga bo'ladi: *1) prototip tuzilishga ega kategoriyalar, 2) protoripik bo'lmagan kategoriyalar, 3) metaforik nominatsiyalar, 4) polisemantik kategoriya, 5) evolyutsion-kognitiv kategoriyalar* (Temmerman, 2000, 203-106). Yana bir ingliz tilshunosi P.Faber ekologiya va atrof-muhit muhandisligi terminlarini 8 semantik guruhga ajratadi:

I. Agent semantik guruhi muayyan jarayonni yuzaga keltiruvchi yoki unga ta'sir qiluvchi subyekt yoki omilni bildiradi: wind (shamol), waves (to'lqinlar);

II. Jarayon guruhi harakat, o'zgarish yoki ekologik-dinamik holatni ifodalovchi terminlardan iborat: erosion (eroziya), pollution (ifloslanish);

III. Patient/result, ya'ni obyekt yoki natija jarayon ta'siriga uchraydigan yoki jarayon natijasida yuzaga keladigan birliklardir: coastline (qirg'oq chizig'i) eroziya natijasida hosil bo'ladi;

IV. Obyekt semantik guruhi tabiiy yoki inson omili natijasidagi obyektlarni nomlab keladi: aquifer (suvli qatlam), seawall (dengiz devori);

V. Hodisa guruhi vaqt va makonda ro'y beradigan ekologik yoki tabiiy voqealarni ifodalaydi: flood (toshqin), storm (bo'ron), drought (qurg'oqchilik);

VI. Instrument semantik guruhi o'lchash, kuzatish, boshqarish uchun ishlatiladigan qurilmalarni nomlaydi: tide gauge (suv sathini o'lchovchi qurilma), pluviometer (yog'in miqdorini o'lchovchi asbob);

VII. Lokatsiya esa jarayon yoki hodisa yuz beradigan hududni bildiradi: coast (qirg'oq), watershed (suv havzasi);

Vazifaviylik guruhi termin ifodalab kelayotgan obyekt yoki jarayonning vazifasini ko'rsatib beradi: groyne (qirg'oqni eroziyadan himoya qilish vazifasini bajaradi), beach nourishment (qirg'oqni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi (Faber, 2012, 1-23).

O'zbek tilshunosligida terminlarni mavzuviy guruhlar asosida tasniflashda turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular, asosan, terminlarning qaysi soha tushunchasini ifodalashi, qanday obyekt yoki jarayon bilan bog'liqligi hamda funktsion-semantik xususiyatlarga tayanadi.

R.Doniyorov o'zbek texnik terminologiyasini tadqiq etadi va ularni quyidagi mavzuviy-semantik guruhlariga ajratadi:

- a) texnik predmet va qurilmalarni bildiruvchi terminlar;
- b) texnik soha va kasb nomlarini anglatadigan terminlar;
- d) texnika bilan aloqador bo'lgan shaxslarni bildiruvchi terminlar;
- e) texnik jarayonlarni nomlovchi terminlar;
- f) texnik miqdor, o'lchov va xossalarni bildiruvchi terminlar (Doniyorov, 1977, 45).


Qoramolchilik terminlari yuzasidan tadqiqot olib borgan O'. O'rinov terminlarni semantik munosabatlari va farqlovchi xususiyatlarini hisobga olgan holda politomik, dixotomik, polidixotomik va dixopolitomik tasnif asosida leksik-semantik guruhlariga bo'ladi. Politomik tasnifda bir umumiy terminologik maydon

bir nechta semantik guruhga bo‘linadi; masalan, qoramolchilik terminlari umumiy maydon bo‘lsa, hayvon yoshi, jinsi, zot turi, mahsuldorligi, parvarish, yem-hashak va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq kichik guruhlar uning tarkibiga kiradi. Dixotomik tasnif esa terminlarni ikki qarama-qarshi yoki o‘zaro farqlanuvchi guruhga ajratadi: erkak-urg‘ochi, yosh-katta, naslli-naslsiz, mahalliy-zotdor.

X. Narxodjayeva o‘zbek tilidagi jarayon ma‘nosini bildiruvchi terminlarni tasniflashda ularning qaysi fan yoki sohada qo‘llanishiga e‘tibor qaratadi va ularni tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar hamda aniq fanlar terminologiyasi kabi mavzuiy guruhlarga ajratadi. Tabiiy fanlar terminologiyasiga biologiya, kimyo, fiziologiya va boshqa tabiiy fanlar doirasidagi jarayonlar kiradi; ijtimoiy fanlar terminologiyasi jamiyat hayoti, siyosiy faoliyat, huquqiy munosabatlar va tarixiy taraqqiyot bilan bog‘liq jarayonlarni nomlaydi; aniq fanlar terminologiyasi esa matematika va mantiqiy-amaliy amallarni ifodalovchi terminlarni qamrab oladi.

NATIJALAR (TADQIQOT NATIJALARI)

Tadqiqot obyekti bo‘lgan futbol terminlarini o‘zaro aloqadorlikda guruhlarga ajratib tahlil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Futbol terminlarini leksik-semantik jihatdan tasniflash uchun besh asosiy mezon ishlab chiqildi: nominativ mezon, protsessual mezon, reglamentativ mezon, natija-statistik mezon va strategik mezon.



1-rasm. Futbol terminlarining leksik-semantik mezonlari.

Mazkur mezonlar futbol diskursining asosiy semantik maydonlarini qamrab olib, terminlarning nomlash, jarayonni ifodalash, qoida va qarorni bildirish, natijani ko'rsatish hamda strategik-taktik mazmuni ifodalash xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

1. Nominativ mezon futbol o'yinida mavjud bo'lgan shaxslar, obyektlar, makon birliklari, jihozlar, tashkiliy tarkiblar va o'yin jarayonida bevosita ishtirok etuvchilarni nomlab keladi. Mazkur mezon tarkibiga kiruvchi terminlar, asosan, *kim?* va *nima?* so'roqlariga javob beruvchi nominativ birliklarni kirgizish mumkin. Ingliz va o'zbek tillarida ushbu mezonga kiruvchi terminlar semantik jihatdan mos keladi, ammo ayrim hollarda ingliz tilidagi terminlar o'zbek tilida o'zlashma, tarjima yoki parallel variantlarda qo'llanilishi mumkin. Nominativ mezon asosida futbol terminlarini quyidagi semantik guruhlariga ajratib ko'rsatdik:

1) Umumiy futbol obyektlari:

Ingliz tilida: *football, soccer, match, game, fixture, tournament, competition, league, cup, championship, season, club, team, squad, line-up, starting eleven, substitute, bench, captain, coach, manager, assistant coach, technical staff, medical staff, training session, warm-up, kick-off, full-time, half-time, extra-time, stoppage-time / injury time, final whistle.*

O'zbek tilida: *futbol, futbol, o'yin, uchrashuv, o'yin, belgilangan o'yin, turnir, musobaqa, liga, kubok, chempionat, mavsum, klub, jamoa, tarkib, boshlang'ich tarkib, asosiy tarkib, zaxira o'yinchisi, zaxira o'rindig'i, sardor, murabbiy, bosh murabbiy / menejer, yordamchi murabbiy, texnik shtab, tibbiy shtab, mashg'ulot, qizish mashqi, o'yin boshlanishi, o'yin yakuni, tanaffus, qo'shimcha vaqt, kompensatsiya vaqti, yakuniy hushtak.*

2) Maydon va uning qismlariga oid terminlar:

Ingliz tilida: *pitch, field, stadium, ground, centre circle, centre spot, halfway line, touchline, sideline, goal line, penalty area, box, six-yard box, goal area, penalty spot, corner arc, corner flag, goalpost, crossbar, net, technical area, dressing room, tunnel.*

O'zbek tilida: *futbol maydoni, maydon, stadion, stadion / maydon, markaziy aylana, markaziy nuqta, markaziy chiziq, yon chiziq, yon chiziq, darvoza chizig'i, jarima maydoni, jarima maydoni, darvozabon maydonchasi, darvoza maydoni, penalti nuqtasi, burchak yoyi, burchak bayrog'i, darvoza ustuni, darvoza to'sini, darvoza to'ri, murabbiylar zonasi, kiyinish xonasi, futbolchilar chiqish yo'lagi.*

3) O'yinchi ampuasiga oid terminlar:

Ingliz tilida: *player, goalkeeper, keeper, outfield player, defender, centre-back, central defender, full-back, right-back, left-back, wing-back, midfielder, central midfielder, defensive midfielder, attacking midfielder, box-to-box midfielder,*

playmaker, winger, right winger, left winger, forward, striker, centre-forward, second striker, false nine, target man, sweeper, libero, utility player.

O‘zbek tilida: *o‘yinchi, darvozabon, darvozabon, maydon o‘yinchisi, himoyachi, markaziy himoyachi, markaziy himoyachi, qanot himoyachisi, o‘ng qanot himoyachisi, chap qanot himoyachisi, qanot bo‘ylab o‘ynovchi himoyachi, yarim himoyachi, markaziy yarim himoyachi, tayanch yarim himoyachi, hujumkor yarim himoyachi, maydon bo‘ylab faol yarim himoyachi, o‘yin tashkilotchisi, qanot hujumchisi, o‘ng qanot hujumchisi, chap qanot hujumchisi, hujumchi, markaziy hujumchi, ikkinchi hujumchi, yolg‘on to‘qqizlik, tayanch hujumchi, erkin himoyachi, libero, ko‘p pozitsiyada o‘ynay oladigan futbolchi.*

4) Jihozlarni ifodalovchi terminlar:

Ingliz tilida: *ball, boots, cleats, kit, jersey, shirt, shorts, socks, shin guards, gloves, goalkeeper gloves, captain’s armband, training bib.*

O‘zbek tilida: *to‘p, futbol butsalari, butsalar, forma, futbolka, futbolka, shorti, getra, boldir himoyachisi.*

5) Hakamlikka oid terminlar:

Ingliz tilida: *referee, assistant referee, linesman, fourth official, VAR, video assistant referee, on-field review, whistle, decision, advantage, booking, caution, dismissal, send-off, red card, yellow card.*

O‘zbek tilida: *bosh hakam, yon hakam, yon hakam, to‘rtinchi hakam, video yordamchi hakam, video yordamchi hakam, maydondagi VAR ko‘rigi, hushtak, qaror, ustunlik qoidasi, ogohlantirish, ogohlantirish, maydondan chetlatish, chetlatish, qizil kartochka, sariq kartochka.*

2. Protsessual mezon futbol o‘yini davomida sodir bo‘ladigan harakat, jarayon, texnik usul va o‘yin bosqichlarini ifodalovchi terminlarni o‘z ichiga oladi. Bu guruhga kiruvchi terminlar “*nima qilmoq?*”, “*qanday harakat bajarilmoqda?*”, “*o‘yin qanday rivojlanmoqda?*” kabi savollarga javob beradi. Ushbu mezon asosida quyidagi semantik guruhlarni tasnifladik:

1) To‘p bilan bajariladigan harakatlar:

Ingliz tilida: *pass, short pass, long pass, through ball, cross, assist.*

O‘zbek tilida: *pas, qisqa pas, uzun pas, kesma pas, qanotdan uzatma, golli uzatma.*

2) Zarbani bildiruvchi harakatlar:

Ingliz tilida: *shot, strike, header, volley, half-volley, finish.*

O‘zbek tilida: *zarba, bosh bilan zarba, havodagi zarba, yarim havodagi zarba, yakunlovchi zarba.*

3) Yakka shaxs tomonidan bajariladigan harakatlar:

Ingliz tilida: *dribble, run, sprint, tackle, sliding tackle.*

O'zbek tilida: *aldab o'tish, yugurish, tez yugurish, to'pni olib qo'yish, sirpanib to'pni olib qo'yish.*

4) O'yin bosqichlari:

Ingliz tilida: *kick-off, half-time, full-time, extra time, stoppage time.*

O'zbek tilida: *o'yin boshlanishi, tanaffus, o'yin yakuni, qo'shimcha vaqt, kompensatsiya vaqti.*

3. Reglamentativ mezonni tarkibiga futbol o'yinini tartibga soluvchi qoidalar, hakamlik qarorlari, choralar, qoida buzilishlarini bildiruvchi terminlarni kiritdik. Ushbu mezon asosida ham bir nechta semantik guruhlar shakllantirildi:

1) Hakamlik qarorlari:

Ingliz tilida: *whistle, decision, advantage, booking, caution.*

O'zbek tilida: *hushtak, qaror, ustunlik qoidasi, ogohlantirish.*

2) Qoida buzilishi:

Ingliz tilida: *foul, handball, offside, dangerous play, simulation, diwing.*

O'zbek tilida: *qoida buzilishi, qo'l bilan o'ynash, ofsayd, xavfli o'yin, simulyatsiya.*

3) Intizomiy choralar:

Ingliz tilida: *yellow card, red card, suspension, ban, disciplinary action.*

O'zbek tilida: *sariq kartochka, qizil kartochka, diskvalifikatsiya, taqiq, intizomiy chora.*

4) Standart vaziyatlar:

Ingliz tilida: *free kick, direct free kick, indirect free kick, penalty, comer kick, throw-in, goal kick.*

O'zbek tilida: *jarima zarbasi, to'g'ridan-to'g'ri jarima zarbasi, bilvosita jarima zarbasi, penalti, burchak zarbasi, autdan to'p tashlash, darvozadan tepish.*

4. Natija-statistik mezon futbol o'yinining yakuni, hisob, gol, turnir jadvali, jamoaviy ko'rsatkichlar, analitik o'lchovlar bilan bog'liq terminlarni qamrab oladi. Quyidagi semantik guruhlar, aynan, natijaviylik va statistik mezonga asoslanadi:

1) Gol va hisob terminlari:

Ingliz tilida: *goal, own goal, equaliser, winner, opening goal, late goal.*

O'zbek tilida: *gol, avtogol, hisobni tenglashtiruvchi gol, g'alaba goli, ilk gol, oxirgi daqiqalardagi gol.*

2) Natija terminlari:

Ingliz tilida: *draw, win, defeat, loss, victory, comeback, clean sheet.*

O'zbek tilida: *durang, g'alaba, mag'lubiyat, kambek, gol o'tkazmaslik.*

3) Turnir ko'rsatkichlari:

Ingliz tilida: *points, standings, table, goal difference, promotion, relegation.*

O'zbek tilida: *ochkolar, turnir jadvali, jadval, to'plar nisbati, yuqori ligaga chiqish, quyi ligaga tushib ketish.*

4) Analitik terminlar:

Ingliz tilida: *expected goals/xG, expected assists/xA, heat map, passing network, touch map*. O‘zbek tilida: *kutilgan gollar/xG, kutilgan assistlar/xA, harakat xaritasi, paslar tarmog‘i, to‘pga tegish xaritasi*.

5. Strategik mezon futbolni taktika, klub boshqaruvi, transfer bozori, musobaqa, muhlislik va futbol uslubini ifodalovchi terminlarni o‘z ichiga oladi, ularni tarkibiga quyidagi semantik guruhlarni kiritdik:

1) Taktik terminlar:

Ingliz tilida: *tactics, strategy, formation, high press, low block, counterattack, possession, transition*. O‘zbek tilida: *taktika, strategiya, joylashuv sxemasi, yuqori pressing, past himoya bloki, qarshi hujum, to‘p nazorati, o‘tish fazasi*.

2) O‘yin uslubi:

Ingliz tilida: *attacking football, defensive football, direct football, tiki-taka, total football, long-ball football*. O‘zbek tilida: *hujumkor futbol, himoyaviy futbol, to‘g‘ridan-to‘g‘ri futbol, tiki-taka, total futbol, uzun paslarga asoslangan futbol*.

3) Klub va transfer terminlari:

Ingliz tilida: *transfer, loan, contract, signing, free agent, academy, club owner, sporting director*. O‘zbek tilida: *transfer, ijara, shartnoma, yangi futbolchi bilan shartnoma, erkin agent, akademiya, klub egasi, sport direktori*.

4) Musobaqa va turnir terminlari:

Ingliz tilida: *group stage, knockout stage, quarter-final, semi-final, final, play-off, derby, rivalry*. O‘zbek tilida: *guruh bosqichi, pley-off bosqichi, chorak final, yarim final, final, pley-off, derbi, raqobat*.

5) Muxlislikni ifodalovchi terminlar:

Ingliz tilida: *fan, supporter, ultras, chant, booing, cheering, fanbase, supporters' club*. O‘zbek tilida: *muxlis, tarafdor, ultras, muxlislar qo‘shig‘i, norozilik ovozi, olqishlash, muxlislar bazasi, muxlislar klubi*.

MUNOZARALAR

Tahlil natijalari ingliz va o‘zbek tillarida futbol terminlari umumiy semantik maydonlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Har ikki tilda ham futbolga oid terminlar o‘yin ishtirokchilari, maydon qismlari, texnik harakatlar, hakamlik qarorlari, natija-statistik ko‘rsatkichlar, taktika va musobaqa jarayoni kabi guruhlar atrofida shakllanadi. Biroq ularning ifodalanish shakllari bir xil emas: ingliz tilidagi terminlar ko‘pincha qisqa, xalqaro sport diskursida barqarorlashgan va bir yoki ikki komponentli shaklda qo‘llanadi; o‘zbek tilida esa mazkur terminlarning muqobillari ko‘p hollarda o‘zlashma, kalkalash yoki izohli birikma orqali yuzaga keladi.

Masalan, offside termini o‘zbek tilida ofsayd shaklida o‘zlashgan bo‘lsa, corner kick burchak zarbasi, goal difference to‘plar nisbati, extra time qo‘shimcha vaqt tarzida kalkalangan. Ayrim birliklarda esa inglizcha termin bilan o‘zbekcha

izohli muqobil parallel qo‘llanadi: clean sheet – gol o‘tkazmaslik, false nine – yolg‘on to‘qqizlik, target man – tayanch hujumchi kabi. Bunday holat futbol terminologiyasida semantik moslik mavjud bo‘lsa-da, nominativ shakl va qo‘llanish me‘yorlarida farqlanish borligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi futbol terminologiyasi uchun ikki yo‘nalish muhim: birinchisi, xalqaro futbol diskursida keng tarqalgan terminlarni tabiiy o‘zlashtirish; ikkinchisi, milliy til me‘yorlariga mos, tushunarli va barqaror muqobillarni shakllantirishdir. Shu sababli terminlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish nafaqat nazariy tasnif, balki tarjima, lug‘at tuzish, sport jurnalistikasi va ta‘lim jarayonida terminlardan izchil foydalanish uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida futbol terminlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilish ularni oddiy leksik birlik emas, balki futbol diskursi doirasida o‘zaro bog‘langan terminologik vositalar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Qiyoslanayotgan tillarda futbol terminologiyasining umumiy semantik maydonlari mavjud bo‘lsa-da, ularning ifodalanish usullarida muayyan farqlar kuzatiladi.

Ingliz tilida futbol terminlari, asosan, qisqa, xalqaro futbol diskursi doirasida barqaror birliklar sifatida bir yoki ikki komponentli shakllarda qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa ular o‘zlashma, kalkalash, izohli birikmalar va parallel variantlar orqali ifodalanadi. Bu holat ingliz tilining futbol terminologiyasida manba til sifatidagi ta‘siri kuchli ekanini, o‘zbek tilida esa terminlarning milliy til me‘yorlariga moslashish jarayoni davom etayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida futbol terminlarini nominativ, protsessual, reglamentativ, natija-statistik va strategik mezonlar asosida tasniflash maqsadga muvofiq ekani aniqlandi. Mazkur tasnif futbol terminlarining semantik qamrovini belgilash, ularning ikki tildagi muqobillarini tizimlashtirish va sport diskursida terminlardan izchil foydalanish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida futbol terminologiyasini korpus lingvistikasi, tarjima nazariyasi, sport jurnalistikasi va terminografiya nuqtayi nazaridan yanada chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, inglizcha futbol terminlarining o‘zbek tilidagi standart muqobillarini aniqlash va ikki tilli futbol terminlari lug‘atini yaratish ushbu yo‘nalishdagi muhim amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Doniyorov R. O‘zbek tilining ilmiy-texnik terminlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: O‘zFAN, 1977.
5. Faber P. (Ed.). A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin-Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – 337 p.
6. Felber H. Terminology Manual. – Paris/Vienna: UNESCO and Infoterm, 1984. – 426 p.
7. International Football Association Board. Laws of the Game 2024/25. – Zurich: IFAB, 2024.
8. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – 252 p.
9. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000. – 258 p.
10. Wright S. E., Budin G. (Eds.). Handbook of Terminology Management. Vol. 1: Basic Aspects of Terminology Management. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1997. – 370 p.

REFERENCES

1. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, methods and applications. John Benjamins Publishing Company.
2. Dadaboyev, H. (2019). O‘zbek terminologiyasi [Uzbek terminology]. Toshkent.
3. Doniyorov, R. (1975). O‘zbek tilining ilmiy-texnik terminlari tarixidan [From the history of Uzbek scientific and technical terms]. Fan.
4. Doniyorov, R. (1977). O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari [Some issues of Uzbek technical terminology]. O‘zFAN.
5. Faber, P. (Ed.). (2012). A cognitive linguistics view of terminology and specialized language. De Gruyter Mouton.
6. Felber, H. (1984). Terminology manual. UNESCO and Infoterm.
7. International Football Association Board. (2024). Laws of the Game 2024/25. IFAB.
8. Sager, J. C. (1990). A practical course in terminology processing. John Benjamins Publishing Company.
9. Temmerman, R. (2000). Towards new ways of terminology description: The sociocognitive approach. John Benjamins Publishing Company.
10. Wright, S. E., & Budin, G. (Eds.). (1997). Handbook of terminology management: Basic aspects of terminology management (Vol. 1). John Benjamins Publishing Company.